

## Amir Umarxon Amiriy



# Amir Umarxon Amiriy

(1787-Qo'qon-1822)

(1810-1822)

Qo'qon xoni, zullisonayn shoir. **Norbo'tabiy**ning o'g'li. O'zbeklarning ming urug'idan. Boshlang'ich savodini oilada chiqarib, keyin madrasada tahsil olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan: akasi – Qo'qon xoni **Olimxon**ning davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. Olimxon 1807-1808 yillarda unga Farg'ona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi **Mohlaroyim (Nodiraga)**ga uylangan.

Hokim tabaqalar Olimxonning Toshkentda ko'tarilgan g'alayonni bostirish uchun qo'shin tortganligidan foydalanib, fitna uyushtiradilar va 1810 yilda Umarxonni xon qilib ko'taradilar, Olimxon esa o'ldiriladi. Umarxon Qo'qon xonligi hududini kengaytirish, hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib boradi. Buxoro amiriga qarshi Turkiston shahri (1815), O'ratepani (1817) bosib olgan. Sirdayo bo'yidagi yerlarda yangi qo'rg'on, Julek Qamishqo'rg'on, Oq machit, Qo'shqo'rg'on nomli harbiy istehkomlar qurdirgan. Ular O'rta Osiyoni Rossiya bilan bog'laydigan muhim savdo yo'lida joylashgan edi. U Rossiya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga harakat qilgan. Umarxon davrida Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyootada masjid va madrasalar qurilib, qabristonlar tartibga keltirilgan. Shahrixon shaharchasi barpo etilgan, yangi qishloqlar vujudga kelgan. Xon amldorlarining talonchilik siyosatiga qarshi Chimkent va Sayramda ko'tarilgan qo'g'alon bostirilgan. XIX asning 1-yarmida Qo'qonda o'ziga xos ilmiy-madaniyat muhit vujudga kelgan – uning boshida turgan ma'rifatparvar hukmdor

Umarxon ilm, madaniyat, san'at, adabiyot, turli kasb-hunarlarining rivojiga katta etibor berilgan, madrasalarda o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilagan, turli hunar maktablari ochilishini qo'llab-quvvatlagan. Ozi ham «**amiriy**» tahallusi bilan she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan. 1821 yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rini o'z ichiga olgan «**Majmuai shoiron**» to'plamini tuzgan. Uni ulug'lab qasidalar yozish, g'zallarga tatabbular bog'lash bu shoirlar ijodida yetakchi o'rin tutgan.

Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedlni o'ziga usto sanab, ulardan ijod sirlarini o'rgangan, ularga ergashib ijod qilgan, g'zallariga muhammaslar bog'lagan. Aruzning Turkiy adabiyotda mashhur, xalq ijodida ham keng tarqalgan yengil va o'ynoqi vazinlaridagina yozilgan bu she'rlarning barchasi ishqu muhabbat mavzuida. Ularda an'anaviy motivlar tasuvvufiy ruh ustun. O'zbek va fors-tojik tilidagi she'rlarini to'plab, devon tartib berilgan. Devon g'azal, muhammas, musadda, tuyuq janrlaridagi o'n ming misradan ortiq she'rni o'z ihiga olgan.

O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo'limining ilmiy hodimlari tomonidan Umarxonning turli dvrlarda ko'chirilgan 26 ta qo'lyozma devoni hisobga olinib, ularning ilmiy tafsifi berilgan. Bu qo'lyozmalar Snkt-Peterburg, Toshkent, Samarqand va Buxoro kutubxonalarida saqlanadi. Ozbekiston FA Sharxshunoslik instituti qo'lyozmalar ondida Umarxonning 17 ta qo'lyozma devoni mavjud. Bundan tashqari, litografik usulda chop etilgsn devonlari va shoir she'rlarida namunalar berilgan bayozlar bor.

2023-11-05 19:26:22